O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi: **“TASDIQLAYMAN”**

№ БД-60310400 SamDU rektori:

2024 yil “19” 14 R.I.Xalmuradov

2024 yil “__” _____

JAMOATCHILIK FIKRI SOTSIOLOGIYASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	**300000 -**	**Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot**
Ta’lim sohasi:	**310000 -**	**Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar**
Ta’lim yo‘nalishi:	**60310400 -**	**Sotsiologiya**

Samarqand - 2024

Fan/modul kodi JAF1206	O‘quv yili 2024-2025	Semestr II	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
1.	Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi	78	102	180

2. **I. Fanning mazmuni**

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fani ijtimoiy guruhlarning mavjud ijtimoiy voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fani jamiyatda ro‘y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib beradi. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fani o‘zining aniq va konkretligi, zimmasidagi masalalarga beradigan ilmiy javoblari atroflicha asoslangan, qayta-qayta tekshirilganligi bilan ham qimmatlidir. Bu fan faqat hozirgi ijtimoiy holatlar ahvoliga to‘laqonli javob berish bilangina cheklanmasdan, ijtimoiy holatlarning istiqboliy o‘zgarishi darajasi hususida bashorat qiladi. Ana shu jihatdan jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fanining amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o‘rganib chiqish zarurati tug‘iladi.

Fanning maqsadi talabalarda jamoatchilik fikri strukturasi, uning shakllanish omillari, funksionallashuv qonun-qoidalari va hozirgi zamon jamiyatida jamoatchilik fikrining roli haqidagi nazariy bilimlarni shakllantirishga, shuningdek, olingan bilimlarni kelajak kasbiy faoliyatlarida amaliy tayyorgarlikka qaratilgan.

Fanning vazifalari talabalarda jamoatchilik fikri zamonaviy konsepsiyalari tushunchalarini shakllantirish; jamoatchilik fikrini tadqiq etishning sotsiologik dasturlari metodikasini ishlab chiqish; ommaviy so‘rovlarni o‘tkazishning amaliy ko‘nikmalarini mukammallashtirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

JAMOATCHILIK FIKRI SOTSIOLOGIYASINING STRUKTURASI VA MOHIYATI

Jamoatchilik fikri va sotsiologiya. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fan sifatida. XX asrning 2-yarmida jamoatchilik fikri sotsiologiyasining rivojlanishi.

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining maqsad va vazifalari. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining ob’ekti. Jamoatchilik fikrini o‘rganishning ijtimoiy ahamiyati. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining dolzarb masalalari. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi predmeti tahlili. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining boshqa

ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Hozirgi kunda jamoatchilik fikri sotsiologiyasining nazariya va amaliyotning umumiy tasnifi.

JAMOATCHILIK FIKRI SOTSIOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

XX asrning 2-yarmida jamoatchilik fikri sotsiologiyasining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining tarixiy ildizlari. Jamoatchilik fikrini o'rganishda sotsiologik tadqiqotlar majmuasi. Ommaviy jamoalar, ommaviy ong va jamoatchilik fikri nazariyalari (B.A.Grushin, YU.A.Zamoshkin). Jamoatchilik fikri strukturasi, tabiati va funksiyalari tahlili (B.M.Firsov, B.Z.Doktorov). Jamoatchilik fikri to'g'risidagi G'arb nazariyalari. F.Tyonnisning «Jamoatchilik fikrining tanqidi» asari. Ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasi (B.Barelson, P.Lazarsfeld, G.Lassuel). Jamoatchilik fikrining shakllanishiga ma'lumotlar, siyosiy yo'l-yo'riqlar, saylovchilar hoxishining ta'siri (S.Lipset, A.Kempbell). Oila, yosh, sinf, irqlarning siyosiy sohadagi jamoatchilik fikriga ta'siri. (M.Djennings). Sotsial yo'l-yo'riqlar, hayot darajasi va sifatidan qoniqish, noqulaylikka chidamlilik (K.Xann). Iqtisodiy muammolar va jamoatchilik fikri: ishsizlik, inflyasiya, daromadalarning tengsizligi va h.k. (D.Gibs).

JAMOATCHILIK FIKRI TUSHUNCHASI, MAZMUN-MOHIYATI VA STRUKTURASI

Angliyada Dj.Solsberi tomonidan "jamoatchilik fikri" tushunchasining ilk marotaba qo'llanilishi. Jamoatchilik fikri tushunchasining tarixiy ildizlari. Gegel jamoatchilik fikri haqida. Olomon, jamoatchilik va omma. Fikr, munosabat, ifoda, o'y tushunchalarining qiyosiy tahlili. Jamoatchilik fikri ommaviy ongning elementi sifatida. Jamoatchilik fikrining boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan aloqadorligi. Jamoatchilik fikrining mohiyati – baholovchi, analitik va konstruktiv nuqtai-nazarlar. Jamoatchilik fikrining belgisi – pozitiv va negativ fikrlar. Jamoatchilik qiziqishi, uni ko'p tomonlama talqin etish.

JAMOATCHILIK FIKRI OB'EKTI VA SUB'EKTI

Jamoatchilik fikri ob'ekti me'zonlari. Jamoatchilik fikri sub'ekti – sotsial jamoalar. Jamoatchilik fikri strukturasi: monistik, birfikrlilik, fikrlarning turli-tumanligi, ularni belgilovchi omillar. Jamoatchilik kayfiyati sotsial psixologik hodisa sifatida. Ijtimoiy ong kishilarning dunyo bilan va o'z-o'zi bilan munosabatlarining ma'naviy vositalar tizimi sifatida.

JAMOATCHILIK FIKRI SOTSIAL INSTITUT SIFATIDA

Jamoatchilik fikri sotsial fenomen sifatida. Jamoatchilik fikrini sotsial institut sifatida namoyon qiluvchi belgilar. Jamoatchilik fikrining asosiy va ikkinchi darajali funksiyalari. Jamoatchilik fikrining regulyativ va tarbiyaviy

funksiyalari, ularning o'zaro aloqadorligi. Jamoatchilik fikri funksiyalarining sotsial institutlarning ta'sirlashuvi darajasiga ko'ra turlari: ekspressiv-nazorat, konsultativ va direktiv. Jamoatchilik fikrining mazmun-mohiyatiga ko'ra taurlari: baholash, tahliliy va konstruktiv. Jamoatchilik fikrining axborotlash funksiyasi. Jamoatchilik fikrining ifodalanish shakliga ko'ra turlari: pozitiv (ijobiy) va negativ (salbiy) .

JAMOATCHILIK FIKRINI BOSHQARISH

Jamoatchilik fikri shakllanishini boshqarishda metodologik masalalar. Jamoatchilik fikri va hokimiyat. Jamoatchilik fikri va demokratiya. Jamoatchilik fikri sotsial boshqaruvning omili, qarorlar qabul qilish jarayonlarining tarkibiy elementi sifatida.

OAV VA JAMOATCHILIK FIKRI

Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikrining shakllanishi. Jamoatchilik fikri ommaviy kommunikatsiyalar mahsuli va ular faoliyati samaradorligining asosiy mezoni sifatida.

OAV va PR-xizmatlar: o'zaro ta'sirlashuv shakllari va usullari. Reklama va uning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o'rni va roli.

G.Lassuel OAVning asosiy funksiyalari haqida. OAV sotsial voqelikni aks ettirish, manfaatni ifodalash, mafkurani shakllantirish usuli sifatida. OAV va fuqarolik jamiyati. OAV va hokimiyat.

JAMOATCHILIK FIKRI DINAMIKASI

Jamoatchilik fikri statikasi va dinamikasi. Jamoatchilik fikrining o'zgarish tendensiyalari. Jamoatchilik fikri transfomatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Jamoatchilik fikri transformatsiyasi mexanizmlari va o'lchamlari. Ijtimoiy ong strukturasida qadriyatlarning qayta baholanishi. Sotsial psixolog Xadli Kentrilning jamoatchilik fikri shakllanishini boshqarish qonunlari.to'g'risida.

JAMOATCHILIK FIKRIGA TA'SIR KO'RSATISH MEXANIZMLARI VA USULLARI

Jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish usullari. Stereotiplar, atrof-muhit, o'tmish kommunikativ malakasining jamoatchilik fikri shakllanishiga ta'siri. Jamoatchilik fikrining alohida va turli sotsial guruhlarga ta'siri. Jamoatchilik fikrining mavjud bo'lishi shart-sharoitlari va jamoatchilik fikri transformatsiyasi omillariva mexnizmlari o'rtasidagi tafovutlar. Turli sohalarda (ta'lim, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport va h.k.) korporatsiyalarning homiylik, hayriya, patronaj yo'llari bilan jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish.

O'ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH MEXANIZMLARI

O'zbekistonda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining faoliyati. "Ijtimoiy fikr" markazining ilmiy tadqiqot ishlari, kompleks va maqsadli sotsiologik tadqiqotlari. O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish mexanizmalari va sotsiologik tadqiqotlar tasnifi. Sotsiologik fan vositalarini qo'llaydigan nodavlat tashkilotlarning ish faoliyati. "Ijtimoiy" fikr jurnalining mazmuni va mohiyati. O'zbekistonlikning sotsial qiyofasi.

JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA PR-TEXNOLOGIYALAR

Jamoatchilik fikrini o'rganish mexanizmalari va sotsiologik tadqiqotlar tasnifi. Sotsiologik fan vositalarini qo'llaydigan nodavlat tashkilotlarning ish faoliyati.

JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISHDA SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING O'RNI

Turli sohalarda (ta'lim, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport va h.k.) korporatsiyalarning homiylik, hayriya, patronaj yo'llari bilan jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining strukturasi va mohiyati
2. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining shakllanishi va rivojlanishi
3. Jamoatchilik fikri tushunchasi, mazmun-mohiyati va strukturasi
4. Jamoatchilik fikri sotsial institut sifatida
5. Jamoatchilik fikrini shakllanishi
6. Jamoatchilik fikrini boshqarish
7. OAV va jamoatchilik fikri
8. Jamoatchilik fikri dinamikasi
9. Jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari va usullari
10. Jamoatchilik fikrini o'rganish markazlari
11. O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish mexanizmlari
12. Jamoatchilik fikrini o'rganish va tahlil qilish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

	Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. OAV faoliyatini kontent-analiz metodi orqali jamoatchilik fikrini o'rganish. 2. Sotsial muammolar, yoshlar muammosi bo'yicha OAV faoliyatini kontent analiz orqali jamoatchilik fikrini o'rganish. 3. Rossiya va O'zbekiston aholisi o'rtasida jamoatchilik fikri o'ziga xosligini qiyosiy tahlil qilish. 4. Nodavlat tashkilotlari ishlarida ijtimoiy fikrni shakllantirish darajasini aniqlash. 5. OAV da jamoatchilik fikridagi turli tumanlilik va qarama-qarshilik. 6. Nodavlat tashkilotlarda jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmlari. 7. Internet tarmog'ida jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash. 8. Internet orqali jamoatchilik fikrini o'rganishning elektron shakllari. 9. OAV da ommaviy so'rovlar. 10. PR-texnologiyalar.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fanining ob'ekti va predmeti, strukturasi; fanning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari; jamoatchilik fikri haqidagi qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi; jamoatchilik fikrini o'rganishning ijtimoiy ahamiyati; jamoatchilik fikri shakllanishining ob'ektiv shart-sharoitlari, mexanizmlari va bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; turli davrlarda olimlar tomonidan jamoatchilik fikrining talqin etilishi evolyusiyasini kuzatishni; jamoatchilik fikrining ob'ekti va sub'ektini; jamoatchilik fikrining strukturasini, o'ziga xos xususiyatlarini; jamoatchilik fikrini sotsial institut sifatida namoyon qiluvchi belgilarni; jamoatchilik fikrining asosiy va ikkinchi darajali funksiyalarini; jamoatchilik fikrini o'rganish talablari, metodlari va shakllarini; sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish tamoyillari va usullarini; jamoatchilik fikri shakllanishi mexanizmlari va bosqichlarini; jamoatchilik fikri shakllanishini boshqarish asoslarini, targ'ibot chegaralari va vositalarini; O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish markazining ilmiy tadqiqot ishlari, kompleks va maqsadli sotsiologik tadqiqotlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; jamoatchilik fikrini o'rganishning dolzarb muammolarini ajrata olish; jamoatchilik fikri haqidagi turli konsepsiyalarni tahlil qilish; jamoatchilik fikrining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari va shakllarini, funksiyalarini ajrata olish; jamoatchilik fikrini o'rganishni tashkil etish; jamoatchilik fikrini o'rganishda ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish va tahlil qilish, tahliliy hujjat yozish; jamoatchilik fikrini o'rganish natijalari asosida ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish va takliflar bera olish; jamoatchilik fikri shakllanishini boshqarishning samarali usul va vositalaridan foydalana olish; jamoatchilik fikrini o'rganish bilan bog'liq munozarali masalalarni muhokama qilish va muammoli holatlarni mustaqil ravishda baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma‘ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Klaster”, “Bumerang”, “Fikrlar hujumi”, “Munozarali dars”, “FSMU” singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi va mashg‘ulotlardagi ma’lumotlar multimedia vositalari yordamida taqdimot qilinadi.

5. **VII. Kreditni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. **Asosiy adabiyotlar:**

1. Normurodov B.N., Normurodova G.B. Sotsiologiya tarixi. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Bekmurodov M. Mavoraunnahrda jamoatchilik fikri. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 1994.
4. Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri. – Toshkent: Fan, 1999.
5. Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent: Sharq, 2002.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) . – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni talablarini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi” PQ-2752- sonli qarori // www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Farmoni. – Toshkent, 2019.
4. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi 05.06.2018 y.N PQ-3775Qarori. – Toshkent, 2018.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.

	Axborot manbalari (saytlar): 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus vazirligining portali. 3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy portali.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **M.Normamatova** – SamDU, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti
9.	**Taqrizchilar:** **Yu.G'.Salimov** – "Mahalla" xayriya jamoat fondi Samarqand viloyat bo'limi ijrochi direktori vazifasini bajaruvchi, Viloyat Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi "Bandlikka ko'maklashish, tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish" bo'limi boshlig'i,sotsiologiya fanlari nomzodi. (tashqi) **M.B.Sherov** – Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy munosabatlar fakulteti, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti, (ichki)

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova

Tuzuvchi: **dots. M.Normamatova**

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi mudiri **dots. I.Negmatov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor **prof. A.Soliyev**

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
"SOTSIOLOGIYA VA IJTIMOIY ISH" KAFEDRASIDA
"JAMOATCHILIK FIKRI SOTSIOLOGIYASI" FANI BO'YICHA
TAYYORLANGAN O'QUV FANI DASTURIGA
TAQRIZ

Sotsiologiya faniga ehtiyoj mamlakatning taraqqiyot g'oyasi nechog'liq salmoqli va jamiyatning rivojlanganlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, shuncha ortib boraveradi. Sotsiologiya bugungi dunyoda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy holat va ma'naviy-axloqiy jarayonlarning hozirgi holati, yaqin hamda uzoq kelajakdagi o'rni xususida keng jamoatchilikka ishonarli ma'lumotlarni etkazib berishda katta ahamiyatga egadir.

Sotsiologiya fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib beradi. Ana shu jihatdan boshqaruv sotsiologiyasi fanining amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o'rganib chiqish zarurati tug'iladi.

Fan dasturida jamoatchilik fikri sotsiologiyasining dolzarb masalalari, jamoatchilik fikri sotsiologiyasining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi, hozirgi kunda jamoatchilik fikri sotsiologiyasining nazariya va amaliyotning umumiy tasnifi, shuningdek, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fanini o'rganishning ilmiy-metodologik asoslari har tomonlama yoritib berilgan.

Viloyat Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash
boshqarmasi "Ijtimoiy ishchilik va ko'maklashish
tadbirkorlik va ijtimoiy biznesni
rivojlantirish" bo'limi boshlig'i,
sotsiologiya fanlari nomzodi Salimov Ya.G'.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti R.K.Yusupov tomonidan tayyorlangan 60311000-Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan "Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi" o'quv fani dasturiga

TAQRIZ

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fani ijtimoiy guruhlarning mavjud ijtimoiy voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmunini atroflicha ochib beradi.

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fani o'zining aniq va konkretligi, zimmasidagi masalalarga beradigan ilmiy javoblari atroflicha asoslangan, qayta-qayta tekshirilganligi bilan ham qimmatlidir. Bu fan faqat hozirgi ijtimoiy holatlar ahvoliga to'laqonli javob berish bilangina cheklanmasdan, ijtimoiy holatlarning istiqboliy o'zgarishi darajasi hususida bashorat qiladi. Ana shu jihatdan jamoatchilik fikri sotsiologiyasi fanining amaliyoti va tadqiqot usullarini atroflicha o'rganib chiqish zarurati tug'iladi.

Fan doirasida talabalar jamoatchilik fikri zamonaviy konsepsiyalari tushunchalarini shakllantirish; jamoatchilik fikrini tadqiq etishning sotsiologik dasturlari metodikasini ishlab chiqish; ommaviy so'rovlarni o'tkazishning amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Mazkur o'quv fan dasturi o'quv dasturlariga qo'yilgan talablar asosida tuzilgan bo'lib, barcha bandlari mantiqan to'g'ri joylashtirilgan. O'quv fan dasturining asosiy qismida jamoatchilik fikri sotsiologiyasi mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'z metodologiyasi va nazariyasiga egadir. Ijtiomiy fanlarga xos bo'lgan ehtiyoj va tasodif, umumuiylik va xususiylik, miqdor va sifat, o'zgaruvchanlik va barqarorlik kabi umumfalsafiy kategoriyalarini mohiyati va mazumunini ochib berish orqali

talabalarga jamiyatda bo'layotgan madaniy jarayon, hodisalarni ilmiy tahlil etish zaruriyatini singdirishdir.

Mazkur fan umumiy jihatdan ikkita yo'nalishning asosiy fani sifatida shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Bunday holat yo'nalishlar integratsiyasini shakllantirib, optimallashtirish tizimini rivojlantiradi.

Albatta, ushbu o'quv dasturning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Mavzularni yanada kengroq ko'rinishida ko'paytirish zarur deb xisoblayman. Ammo, yuqoridagi kamchilik yaratilgan o'quv fan dasturining mohiyati va mazmuniga ta'sir etmagan. Shuning uchun ushbu fanning o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy boshqarmaga tasdiqlash uchun tavsiya beraman.

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar
fakulteti, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish"
kafedrasi dotsenti **M.B.Sherov**